

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA “STEAM” FAOLIYATI

**Egamberdiyeva Sevara**

Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti IV kurs talabasi

Tarjima nazariyasi va qiyosiy tilshunoslik kafedrasi.

E-mail: [egamberdiyevasevara38@gmail.com](mailto:egamberdiyevasevara38@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalardagi ta'lim tizimni rivojlantirish, bolalarni mustaqil fikirlashi, har tomanlama yetuk voyaga yetkazish kabi masalalar yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** Zamonaviy texnologiyalar, ta'lim, STEAM, Innovatsion, zamonaviy yondashuv.

**Annotation:** This article covers issues such as the development of the educational system for children of preschool age, the independent thinking of children, and the development of a fully mature adult.

**Keywords:** Modern technologies, education, STEAM, Innovative, modern approach

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются такие вопросы, как развитие образовательной системы детей дошкольного возраста, самостоятельное мышление детей, развитие полноценного взрослого человека.

**Ключевые слова:** Современные технологии, образование, STEAM, Инновационный, современный подход.

### Kirish

Bugungi kunda kelajagi buyuk davlat fuqorasi bo`lgan komil insonni tarbiyalamasdan uning siyosiy ongi, madaniyati, ma'naviyati, ijtimoiy va yaratuvchanlik faoliyatini yuksak darajaga ko'tarmasdan turib, barqaror taroqqiyotga erishish mumkin emas. Muhtaram prezidentimiz ta'kidlagandek kelajagimiz yoshlar qo`lida. Shunday ekan biz etiborni maktabgacha yoshdagi bolalardan boshlaymiz. Ularning tarbiyasi, kelajagi uchun har qanday zamonaviy texnologiyalar asosida bilimlar berib bormoqda. O'tgan asr mobaynida mamlakatimizda o`sib borayotgan yosh avlodni sog'lom, har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta'lim uzliksiz ta'lim tizimining dastlabki boshqichi hisblanadi. Uning asosiy maqsadi - bola shaxsining har jihatdan rivojlanishini taminlash qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, o'qishga, doimiy ta'lim olish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish va maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun tayyorlashdan iborat. Shunday yangi zamonaviy tizimlardan biri “STEAM”

S-fan

T-texnologiya

E-muhandislik

A-san'at

## M-matematika

Bir soʻz bilan aytganda, rivojlanayotgan mamlakatlarda eng koʻp talab boʻlayotgan fanlardir. STEAM tizimi dunyodagi asosiy tendetsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvini qoʻllashda beshta sohani yagona oʻquv sixemasiga integratsiyalashga asoslangan. Maktabgacha yoshdagi bolalarda STEAM faoliyati olib borilishining asosiy maqsad va vazifalardan hususan: bolalarni maktabdagi oʻqishga tayyorlash, ularni sogʻlom parvarish qilish, mustaqil shaxs boʻlib shakillantirishda barcha qobilyatlarni ochib berish, tizimli taʼlimga boʻlgan ishtiyoqini qoʻllab-quvvatlash hamda fan texnologiya, muhandislik, sanʼat va matematika fanlaridagi bilimlarni chuqur egallash bilan birga mustaqil fikirlash va erkin muloqatni amaliyotga tatbiq etishdir.

### Asosiy qism

Bugungi dunyo kechagi kabi emas, ertangi kun ham bugungi kabi boʻlmaydi. Inson faoliyati barcha sohalarida dinamik rivojlanayotgan texnologiyalar joriy etilmoqda. Zamonaviy bolalarning 65% bugungi kunda mavjud boʻlmagan kasblarni egallaydi. Kelajakdagi mutahassislar texnologiya, ilim-fan va muhandislikning turli xil sohalaridan kompleks taʼlim va bilimlarga muhtoj boʻladi. Bu kabi vazifalarni maktabgacha taʼlimda keng qoʻllanayotgan STEAM dasturi orqali amalga oshirishimiz mumkin.

STEAM farzandlarimizga ixtirochilar kashfiyotchilarning kelajak avlodi, olim sifatida tatqiqotlar olib borish, texnologiyani shakillantirish, muhandis sifatida loyihalash, rassom sifatida yaratuvchi, matematik sifatida analitik fikir yuritishni oʻyin orqali yuzaga keltiradi. Bugungi kunda STEAM taʼlim dunyodagi asosiy tendetsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda.

STEAM- hozirgi kunda dunyo taʼlim tizimining eng asosiy vazifalardan boʻlgan inavatsiyon metotlaridan biri hisoblanadi. Oʻzlashtirilgan turli sohalaridagi bilimlarning integratsiyasi juda muhimdir. Aynan shundan muommalarni bartaraf qilishda STEAM texnologiyasi yordam beradi. Bu metodika taʼlimni aralash turda olib borish va egallangan nazariy bilimlarni kundalik hayotda qoʻllay olish koʻnikmalarni shakillantirishga imkon beradi. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qoʻyiladigan davlat talablari va “Ilk qadam” oʻquv dasturining ishlab chiqilishi uzluksiz taʼlim tizimida maktabgacha taʼlimni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Bundan tashqari STEAM axborati modul tizimidir, yani pedagog tomonidan yangi malumot berishga yoʻnaltirilgan oʻquv modeli hisoblanadi, bunday talimning shartlari uning uzliksizligi va bolalarning yakka tartibda yoki guruhlarda oʻzaro muloqat qilish qobilyatlarini rivojlantirish boʻlib, bunda ular fikirlarini jamlashi va fikirlar almashishi mumkin.

STEAM- yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam oʻrganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikirlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobilyatlarini, jamoaviy ish say-harakatlarini rivojlantirish va liderlik, oʻz-oʻzini namoyon qilish asoslarini oʻrganishadi, oʻz navbatida, bolalar barkamol topishining tubdan yangi darajasini taminlaydi. Muhokamali vaziyatlarda bolalar fikir bildirish uchun qoʻrqmaslikka oʻrganadi. Yoshlarni jamiyatdagi ijtimoiy faoliyatini oshirishda, hayotdagi roʻlini, oʻrnini aniqlashda manaviy omilning roʻli kattadir. Buni ilmiy, nazariy jihatdan asoslab berish va amaliyotda manaviy boy yoshlarni yetishtirib berishga moʻljallangan dasturlarni ishlab chiqish hozirgi kunning oʻta murakkab va dolzarb muommalardan biridir.

### Xulosa

Shuni unutmazlik kerakki bugungi kunda inson manaviyatiga qarshi yoʻnaltirilgan bir qarashda arzimas boʻlib tuyuladigan kichkina xabar ham axborat olamidagi globallashuv

shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan lekin zararni hech narsalar bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazish mumkin. Shunday ekan STEAM ta'lim tizimini maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlash o'rinlidir. Faqatgina fan texnologiya muhandislik, san'at va matematika kabi fanlarni o'rganish emas, aksincha muomila madaniyati, ota-onaga, qo'ni-qo'shniga va boshqalarga ko'rsatiladigan ehtiromdir. Tevarak atrofimizdagi barcha narsa hamma-hammasi shu bilan bog'liqdir chunki o'qigan, yetuk, bilimli bo'lsin-u muomilasi yaxshi bo'lmasa hoh ishi, hoh biznesi orqaga qarab ketishi aniq. Sababi shundaki, mijozlarga qo'pol munosabatda bo'lgan kadrlar, pedagoglar hech qachon ravnoq topolmagan. Lekin muomilasi haqiqatdan ham kirishimli va o'z ishining ustasi bo'lsa mijozlari yoki muhlislari har doim qadrlab e'zozlashgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. "Ilk qadam". Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi, T:2018
2. Ko'smis IT maktabi 2020
3. Boy V, V Nyukalov. Ijodiy fikirlashni rivojlantirish (bolalar bog'chasida TRIZ) 2008
4. Didactic games in preschool educational system. F.U. Urinova –problembi sovremennoy nauki obrazovaniya, 2020-elibraru.ru
5. Asqarova O'. M. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik V. S. Nishonov 2008.
6. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 452-459.
7. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.
8. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 3008-3020.
9. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – T. 9. – №. 1. – C. 4943-4952.
10. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 573-578.
11. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – T. 3. – №. 08.05. – C. 187-190.
12. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE.
13. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection in French Phraseology." Journal of Positive School Psychology (2022): 2883-2889.
14. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." Конференции. 2021.
15. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek Phraseology." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.

16. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into "Historical Memory" in French and Uzbek Linguistic Traditions." *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
17. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing "Historical Memory" In Uzbek and French Languages." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
18. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development* 2.11 (2023): 490-492.
19. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." *Академические исследования в современной науке* 2.17 (2023): 165-169.
20. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." *Academic research in educational sciences* 3.5 (2022): 1176-1182.
21. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 879-884.
22. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." *O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI*, 2023,[1/4] (2023).